

**FILOLOG TALABALARNING NEMIS TILIDA GAPIRISH MALAKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Nishanova Viloyat Narjigitovna

tel: +998906014890

viloyatnishonova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21204583>

Annotatsiya: Ushbu tezisdan nemis tilini o‘qitishda filolog talabalarning gapirish malaksini muammoli texnologiyalar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari hamda uning chet tilini o‘qitish jarayonidagi metodik ahamiyati chet tili o‘qitish sohasida izlanish olib borgan olimlar qarashlari asosida tahlil qilinadi. Muammoli texnologiyalar ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod sifatida tanlab olinganligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: nemis tili, gapirish malakasi, muammoli texnologiya, muammoga asoslangan dars, kommunikativ kompetensiya, filolog talabalar.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы совершенствования навыков говорения студентов-филологов при обучении немецкому языку на основе проблемных технологий, а также их методическая значимость в процессе обучения иностранным языкам с опорой на взгляды ученых, проводивших исследования в области преподавания иностранных языков. Обосновывается выбор проблемных технологий как эффективного метода, способствующего развитию самостоятельного мышления, критического мышления и коммуникативной компетенции студентов в образовательном процессе.

Ключевые слова: немецкий язык, навыки говорения, проблемная технология, проблемно-ориентированный урок, коммуникативная компетенция, студенты-филологи.


Abstract: This thesis analyzes the theoretical foundations of improving philology students’ speaking skills through problem-based technologies in teaching German, as well as their methodological significance in the foreign language teaching process, based on the views of scholars who have conducted research in the field of foreign language education. It substantiates the selection of problem-based technologies as an effective method that promotes students’ independent thinking, critical thinking, and communicative competence in the educational process.

Keywords: German language, speaking skills, problem-based technology, problem-based lesson, communicative competence, philology students.

Kirish: Dunyo ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, filologiya yo‘nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning chet tilida erkin muloqot qila olishlari, fikrini aniq va mantiqiy ifodalashlari hamda turli kommunikativ vaziyatlarda samarali ishtirok etishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan nemis tilida gapirish malakasini rivojlantirish zamonaviy lingvodidaktikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda chet tillarini o‘qitishda bilimlarni tayyor holda o‘zlashtirishga asoslangan an’anaviy

yondashuvlardan talabaning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etishi va ijodiy faoliyatini rag’batlantiruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarga o’tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday texnologiyalar orasida muammoli o’qitish alohida o’rin egallaydi. Muammoli o’qitish talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda o’quv jarayonini real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirish imkonini beradi. Mazkur texnologiya talabaning oldiga muayyan muammoli vaziyatni qo’yish va uni mustaqil hal qilishga yo’naltirish orqali yangi bilim va ko’nikmalarning samarali o’zlashtirilishini ta’minlaydi. Nemis tilini o’qitish amaliyoti shuni ko’rsatadiki, talabalarning grammatik va leksik bilimlari yetarli darajada shakllangan bo’lsa-da, ular ko’pincha ushbu bilimlarni real muloqot jarayonida qo’llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Natijada nutqiy faollikning pasayishi, kommunikativ to’siqlarning yuzaga kelishi hamda gapirish malakasining yetarli darajada rivojlanmasligi kuzatiladi. Muammoli o’qitish texnologiyalari esa talabalarda nutqiy ehtiyojni yuzaga keltirish, fikr almashishga bo’lgan ichki motivatsiyani kuchaytirish va kommunikativ faoliyatni tabiiy ravishda tashkil etish imkonini beradi.

Asosiy qism: Shu munosabat bilan filologiya yo’nalishi talabalarining nemis tilida gapirish malakasini muammoli o’qitish texnologiyalari asosida takomillashtirishning nazariy va metodik asoslarini tadqiq etish, mazkur jarayonda qo’llaniladigan samarali usul hamda vositalarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Nemis tilini o’rgatishda gapirish malakasini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega bo’lib, bu tilning grammatik murakkabligi va qat’iy sintaktik tuzilmasi bilan izohlanadi. Real muloqotga yo’naltirilgan topshiriqlar talabalarning nutqiy qiyinchiliklarini kamaytirishga xizmat qiladi. [8.312] Nemis tilida gapirish malakasini takomillashtirishning metodik jihatlari xaqida aytadigan bo’lsak, biz tadqiqot ishimizda filolog talabalarning nemis tilida gapirish malakasini takomillashtirishda muammoli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg’ulotlarda foydalanilgan texnologiyalarni keltirib o’tamiz. (1-rasmda ko’rishimiz mumkin). Masalan: bu texnologiyalar asosida talabalar uchun quyidagicha muammoli vaziyat beriladi: Sie sind Student in Deutschland und haben ein Missverständnis mit Ihrem Professor. Wie lösen Sie dieses Problem? Ushbu vaziyat talabalardan: fikrni og’zaki ifodalash, dalillash, muloqot madaniyatiga rioya qilish, ko’nikmalarini talab etadi. Muammoli topshiriqlar orqali talabalar nemis tilida erkin gapirishga, o’z fikrini asoslab bayon etishga va bahs-munozarada faol ishtirok etishga o’rganadilar.



1-rasm Mashg’ulotlarda foydalaniladigan texnologiyalar

Nafaqat nemis tili umuman chet tili o’qitish metodikasi bo’yicha ko’plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Tadqiqot ishimiz kommunikativ kompetensiya bilan bog’langanligi sababidan o’zbekiston tilshunoslik va metodika maktabida kommunikativ kompetensiya masalasi J. J. Jalolov tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Olim chet tillarni o’qitishning asosiy maqsadi sifatida talabalarni erkin muloqotga tayyorlashni belgilaydi. Uning ta’kidlashicha, chet tilni o’rganish jarayonida nutqiy faoliyat markaziy o’rin tutishi lozim.

Jalolov muammoli topshiriqlar, kommunikativ mashqlar va interaktiv metodlar orqali talabalarining gapirish ko’nikmasini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi. U shunday yozadi: Talabaning faol nutqiy ishtiroki kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. [1. 243]

Olimning qarashlari Braun va Safonova nazariyalari bilan uzviy bog’lanib, ularni milliy ta’lim sharoitiga moslashtiradi.

Yuqoridagi nazariy tahlil shuni ko’rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish konsepsiyasi ilmiy taraqqiyot jarayonida uzviylik asosida shakllanib kelgan. D. Hymes tomonidan asos solingan nazariya V. Safonova tomonidan tizimlashtirilgan, J. Jalolov tomonidan milliy ta’lim tizimiga moslashtirilgan hamda D. Braun tomonidan zamonaviy interaktiv va muammoli o’qitish metodlari bilan boyitilgan. Mazkur ilmiy uzviylik filologiya yo’nalishi talabalarining nemis tilida gapirish ko’nikmasini muammoli o’qitish texnologiyasi orqali takomillashtirishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi hamda ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Muhammadjon Xodjaev va Mavluda Qahhorova olimlar ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo’yicha o’z tadqiqotlarida alohida to’xtalib o’tganlar: Til o’qitish metodikasi nazariyasida kommunikativ kompetensiya tushunchasi markaziy o’rin tutadi, chunki u til o’rganuvchining til bilimini amaliy muloqot jarayonida qo’llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Xususan, Muhammadjon Xodjaev va Mavluda Qahhorova o’z darsligida chet tilini o’qitish jarayonida gapirish malakasini takomillashtirishni quyidagicha yoritadi.

Gapirish malakasi til bilimlarini statik bilishdan farqli o’laroq, ularni real muloqot sharoitida samarali qo’llay olish qobiliyati sifatida talqin etadi. Bu esa til o’rganuvchini tilning lingvistik strukturalarini yodlashdan ko’ra, ularni muloqot jarayonida faol va maqsadga yo’naltirilgan tarzda qo’llay oladigan shaxsga aylantirishni ko’zda tutadi. [3.95]

Xodjaev va Qahhorova metodik yondashuv sifatida kommunikativ yondashuvni taklif qiladi — ya’ni o’quv jarayoni tilning amaliy muloqot funksiyalarini qo’llashga yo’naltiriladi. Mualliflar ta’kidlashicha, til o’rganuvchilar tinglash, gapirish, o’qish va yozish faoliyatining barchasida real vaziyatlarga o’xshash topshiriqlarni bajarish orqali tilni faol qo’llashga o’rgatiladi. Shu nuqtai nazardan, darslikda kommunikativ vaziyatlarning metodik o’rni katta ahamiyat kasb etadi: o’quvchilarga autentik kommunikativ vaziyatlar yaratish orqali nutqiy strategiyalarini shakllantirish, o’z fikrlarini aniq va mantiqan ifodalash, shuningdek madaniy kontekstni hisobga olish ko’nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

Ushbu metodik qarashlar muammoli o’qitish texnologiyasi orqali nemis tilida gapirish malakasini takomillashtirish masalasini ilmiy jihatdan qo’llab-quvvatlaydi. Chunki Gapirish malakasini takomillashtirish uchun talabalarni real vaziyatlarda muammoli va muloqotga yo’naltirilgan topshiriqlar orqali faol ishtirok etishga jalb etish zarurati bor.



Xulosa: Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko’rsatdiki, filologiya yo’nalishi talabalarining nemis tilida gapirish malakasini rivojlantirish chet tillarni o’qitish metodikasining muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy metodik yondashuvlar orasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida D. Hymes, V. Safonova, D. Braun va J.J. Jalolovlarning kommunikativ kompetensiyaga oid nazariy qarashlari tahlil qilinib, ularning o’zaro ilmiy uzviyligi aniqlandi. Tahlillar natijasida kommunikativ kompetensiyaning samarali shakllanishi talabalarning faol nutqiy ishtiroki, real kommunikativ vaziyatlarda til birliklaridan foydalanishi hamda mustaqil fikrlash faoliyati bilan bevosita bog’liqligi aniqlandi. J.J. Jalolov tomonidan ilgari surilgan kommunikativ mashqlar, interaktiv metodlar va muammoli topshiriqlarning nutqiy ko’nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati tadqiqot mavzusining metodologik asoslarini mustahkamladi.

Shuningdek, M. Xodjaev va M. Qahhorovalarning metodik qarashlari gapirish malakasini real muloqot jarayonida shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi. Ular tomonidan taklif etilgan kommunikativ yondashuv hamda autentik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu sababli filologiya yo’nalishi talabalarining nemis tilida gapirish malakasini muammoli o’qitish texnologiyalari asosida takomillashtirish nafaqat kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga, balki talabalarning tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarining shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Mazkur yondashuv nemis tilini o’qitish samaradorligini oshirishning muhim metodik vositalaridan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet til o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2012.
2. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007.
3. Xodjaev M., Qahhorova M. Til o’qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2023.
4. Maxmutov M.I. Problemnoye obucheniye: osnovniye voprosi teorii. – Moskva: Pedagogika, 1975.
5. Lerner I.Ya. Problemnoye obucheniye. – Moskva: Znaniye, 1974.
6. Karimov U.U. Chet tillarni o’qitishda kommunikativ yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
7. Passov E.I. Kommunikativniy metod obucheniya inostrannomu govoreniyu. – Moskva: Prosveshchenie, 1991.
8. Krumm H.-J. “Deutsch als Fremd- und Zweitsprache: Eine Einführung”. – Berlin: De Gruyter, 2010.